ISNN 3030-3907

2026
MAY
ISSUE - 5
VOLUME - 9

DEVELOPMENT OF SCIENCE

scientific journal



Development of science

Ilmiy jurnal

MAY 2026
Issue - 5, VOLUME – 9

ISSN 3030 -3907

Ilmiy jurnal OAK rayosatining 2024 yil 27 sentabrdagi 361-son qaroriga asosan 02.00.00 kimyo fanlari hamda 2025 yil 12 fevral 367- son qaroriga asosan 05.00.00 texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari yuzasidan dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

BOSH MUHARRIR:
Temirov Alisher Hoshim o‘g‘li – texnika fanlari falsafa doktori (PhD),Dotsent.
TAHRIRIYAT KENGASH RAISI:
Fozilov Sadriddin Fayzullayevich – texnika fanlari doktori, professor
TAHRIRIYAT KENGASH A’ZOLARI

TEXNIKA FANLARI/ TECHNICAL SCIENCES/ ТЕХНИЧЕСКИЕ НАУКИ

Bozorov G‘ayrat Rashidovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Abdurahmonov Olim Rustamovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Adizov Bobur Zamirovich
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Umumiy va noorganik kimyo instituti, professor
Hayitov Ruslan Rustamjonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Jumayev Qayum Karimovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Berdiyev Dorob Murodovich
Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti, professor
Maxmudov Rafiq Amonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Tilloyev Lochin Ismatilloyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Raxmonov Qahramon Sanakulovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Barakayev Nusratullo Rajabovich
Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti, professor.
Jo‘rayev Xayrullo Fayziyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Panoyev Erali Rajabboyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Ataullayev Sherzod Nabiullyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Murodov Malik Negmurodovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Axmedova Ozoda Bahronovna
Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti.
Safarov Bahri Jumayevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Xaydarov Axtam Amonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Safarov Jasur Alijon o‘g‘li
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.

KIMYO FANLARI/ CHEMICAL SCIENCES/ ХИМИЧЕСКИЕ НАУКИ

Axmedov Voxid Nizomovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Umarov Baqo Bafoyevich
Buxoro Davlat Universiteti, professor
Kodirov Abduaxad Abduraximovich
Qarshi davlat Universiteti, professor
Qurbonov Mingniqul Jumagulovich
Qarshi davlat Universiteti, dotsent
Turemuratov Sharibay Naurizbaevich
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog‘iston bo‘limi Bosh ilmiy kotibi, professor
Tursunov Kaxor Shonazarovich
Qarshi davlat Universiteti, professor
Do‘stov Hamro
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Panoyev Nodir Shavkatovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Olimov Bobur Bahodir o‘g‘li
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Kasimov Sherzod Abduazimovich
Termiz Davlat Universiteti, professor.
Aliqulov Rustam Valiyevich
Termiz Davlat Universiteti, professor
Tropov Xamza Tursunovich
Samarqand Davlat Universiteti, professor

IQTISODIYOT FANLARI/ ECONOMICS/ ЭКОНОМИЧЕСКИЕ НАУКИ

Nizamov Aslitdin Badreddinovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Boboyev Akmal Choriyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Ergashxojayeva Shaxnoza Djasurovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, professor
Saidaxmedova Nodira Ilxomovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, professor
Muxsinov Bekzod Toxirovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Shakarov Qulmat Ashirovich
Renessans ta'lim universiteti,dotsent.
Jumaeva Zulfiya Qayumovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Norova Salomat Yusupovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Avezova Shaxnoza Maxmudjonovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Jalilov Jamshid G‘anijonovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, dotsent
Xasanova Gulruh Djumanazarovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.

PEDAGOGIKA FANLARI/ PEDAGOGICAL SCIENCES / ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ НАУКИ

Siddiqova Sadoqat G‘afforovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Zoyirov Erkin Xalilovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, DSc, professor
Gaffarov Feruz Hasanovich
Puchon Universiteti, *professor*
Ruziyev Davron Yuldashevich
Buxoro Davlat Universiteti, professor
Muradova Firuza Rashidovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Yunusova Gulandon Samiyevna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
To‘xtayeva Zebo Sharifovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Navro‘zova Gulchixra Nigmatovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Uzoqova Laylo Polvonovna
Buxoro muhandislik – texnologiya instituti, dotsent.
To‘raqulova Marjona Qiyom qizi
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Muradova Zarina Rashidovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Murodov Sanjar Aslonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Shodiyev Jahongir Jo‘raqulovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent
Gaffarov Laziz Hasanovich
Buxoro muhandislik – texnologiya instituti, dotsent.

Tahririyat a’zolarning to‘liq ro‘yxati jurnalning www.devos.uz saytida keltirilgan.

Tahririyat hay’ati a’zolarining tarkibini o‘zgartirish hamda qo‘shimcha kiritish yoki tahririyat a’zoligidan chiqarish bosh muharrir tomonidan amalga oshiriladi.

ISSN 3030-3907

Development of science ilmiy jurnali 2024 yil 15 aprel kuni №256445 sonli guvohnoma bilan Davlat ro‘yxatidan o‘tgan.

To‘plam elektron ko‘rinishda (pdf formatida) mualliflarga taqdim etiladi. To‘plamga kiritiladigan maqolalarning mazmuni, ulardagi statistik ma’lumotlar va me’yoriy hujjatlarning to‘g‘riligiga hamda har qanday fikr - mulohazalarga mualliflarning o‘zlari mas’ul hisoblanadilar. Talablarga javob bermaydigan maqolalar to‘plamga kiritilmaydi. Tashkiliy qo‘mita maqola matnini qisqartirish, qisman tuzatish kiritish, seksiyalarga joylashtirish huquqiga ega.

ISSN 3030-3907

SANOAT TARMOQLARINI HUDUDLARARO DIVERSIFIKATSIYALASH MODELLARI VA USULLARINING INNOVATSION RIVOJLANISH STRATEGIYALARI

Rahmonova Tillaoy Malik qizi
Qarshi davlat universiteti Mustaqil tadqiqotchisi
E-mail: tilaoyraxmonova@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada sanoat tarmoqlarini hududlararo diversifikatsiyalashning mintaqaviy iqtisodiyot barqarorligi va korxonalar raqobat ustunligini shakllantirishdagi o‘rni tahlil qilingan. Diversifikatsiyaning vertikal, gorizontal va klaster modellari innovatsion rivojlanish strategiyalari bilan uyg‘unlikda ko‘rib chiqilib, ularning ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va risklarni kamaytirishdagi ahamiyati asoslab berilgan. Shuningdek, jarayon, mahsulot va tizimli innovatsiyalar orqali xarajat va differensial ustunlikni shakllantirish mexanizmlari yoritilgan. Tadqiqot natijalari hududlararo diversifikatsiya innovatsion siyosat bilan integratsiyalashganda korxonalar raqobatbardoshligini oshirishning muhim instrumenti ekanligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: hududlararo diversifikatsiya, sanoat tarmoqlari, innovatsion rivojlanish, vertikal va gorizontal diversifikatsiya, klaster modeli, raqobat ustunligi, ishlab chiqarish samaradorligi.

Аннотация. В данной статье анализируется роль межрегиональной диверсификации отраслей промышленности в обеспечении устойчивости региональной экономики и формировании конкурентных преимуществ предприятий. Вертикальные, горизонтальные и кластерные модели диверсификации рассматриваются во взаимосвязи со стратегиями инновационного развития, а также обосновывается их значение в повышении производственной эффективности и снижении рисков. Кроме того, раскрываются механизмы формирования затратных и дифференциальных преимуществ посредством процессных, продуктовых и системных инноваций. Результаты исследования показывают, что интеграция межрегиональной диверсификации с инновационной политикой является важным инструментом повышения конкурентоспособности предприятий.

Ключевые слова: межрегиональная диверсификация, отрасли промышленности, инновационное развитие, вертикальная и горизонтальная диверсификация, кластерная модель, конкурентное преимущество, производственная эффективность.

Abstract. This article analyzes the role of interregional diversification of industrial sectors in ensuring regional economic stability and forming competitive advantages of enterprises. Vertical, horizontal, and cluster diversification models

are considered in connection with innovative development strategies, and their importance in increasing production efficiency and reducing risks is substantiated. In addition, the mechanisms for creating cost and differentiation advantages through process, product, and systemic innovations are highlighted. The research findings indicate that the integration of interregional diversification with innovation policy serves as an important instrument for enhancing enterprise competitiveness.

Keywords: interregional diversification, industrial sectors, innovative development, vertical and horizontal diversification, cluster model, competitive advantage, production efficiency.

KIRISH.

Sanoat tarmoqlarini hududlararo diversifikatsiyalash mintaqaviy iqtisodiyot barqarorligini ta’minlash, ishlab chiqarish tarkibini optimallashtirish va korxonalar raqobat ustunligini shakllantirishning muhim omili hisoblanadi. Diversifikatsiya jarayoni innovatsion rivojlanish strategiyalari bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, u ishlab chiqarish samaradorligini oshirish hamda risklarni kamaytirishga xizmat qiladi. Hududlararo diversifikatsiyaning asosiy modellari vertikal, gorizontal va klaster yondashuvlardan iborat. Vertikal diversifikatsiya qiymat zanjirini kengaytirish orqali xarajatlarni kamaytirishga xizmat qilsa, gorizontal diversifikatsiya yangi mahsulot va bozor segmentlarini o‘zlashtirish orqali daromad manbalarini kengaytiradi. Klaster modeli esa hududlararo kooperatsiya va innovatsion integratsiyani kuchaytirish asosida sinergetik samarani ta’minlaydi.

Mazkur modellar innovatsion rivojlanish strategiyalari bilan uyg‘unlashganda korxonalarning texnologik yangilanish darajasi oshadi, ishlab chiqarish samaradorligi ortadi hamda bozor ulushi kengayadi. Xususan, jarayon innovatsiyasi xarajat ustunligini, mahsulot innovatsiyasi differensial ustunlikni, tizimli innovatsiya esa barqaror raqobat pozitsiyasini shakllantiradi. Hududlararo diversifikatsiyalash orqali korxonalar raqobat ustunligiga ta’sir etuvchi omillar quyidagilardan iborat: ishlab chiqarish resurslaridan samarali foydalanish, logistika va infratuzilma rivojlanganligi, investitsion muhit, innovatsion salohiyat hamda mintaqaviy sanoat siyosatining qo‘llab-quvvatlovchi mexanizmlari. Sanoat tarmoqlarini hududlararo diversifikatsiyalash innovatsion rivojlanish strategiyalari bilan uyg‘unlikda amalga oshirilganda korxonalar raqobatbardoshligini oshirishning muhim instrumenti sifatida namoyon bo‘ladi.

ADABIYOTLAR SHARHI. Sanoat tarmoqlarini hududlararo diversifikatsiyalash va innovatsion rivojlanish asosida raqobat ustunligini shakllantirish masalalari iqtisodiy nazariyada keng yoritilgan. Raqobat ustunligi konsepsiyasi Michael Porter tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, u xarajat ustunligi

ISSN 3030-3907

va differensial ustunlikni shakllantirishda ishlab chiqarish samaradorligi hamda klasterlashuvning muhimligini asoslab bergan. Ushbu yondashuv hududiy diversifikatsiya va innovatsion integratsiya o‘rtasidagi bog‘liqlikni tushuntirishda metodologik asos vazifasini bajaradi.

Hududiy rivojlanish va sanoatni joylashtirish nazariyasi Alfred Weber hamda yangi iqtisodiy geografiya vakillari, xususan Paul Krugman tadqiqotlarida ishlab chiqarish omillarining hududiy kontsentratsiyasi, miqyos samarasi va aglomeratsiya effektlari yoritilgan. Mazkur nazariyalar hududlararo diversifikatsiyaning logistika, infratuzilma va resurslardan foydalanish samaradorligiga ta’sirini izohlashga xizmat qiladi.

Innovatsion rivojlanish nazariyasi doirasida Joseph Schumpeter innovatsiyalarni iqtisodiy o‘sish va raqobat ustunligining asosiy omili sifatida talqin qilgan. Keyinchalik milliy innovatsion tizim konsepsiyasi mualliflari innovatsion infratuzilma va institutsional qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarining sanoat raqobatbardoshligiga ta’sirini asoslab berganlar.

Zamonaviy ilmiy tadqiqotlarda vertikal va gorizontal diversifikatsiya modellarining qiymat zanjiri kengayishi, yangi bozor segmentlarini o‘zlashtirish hamda risklarni kamaytirishdagi ahamiyati qayd etiladi. Klaster yondashuvi esa hududlararo kooperatsiya va innovatsion integratsiya orqali sinergetik samaraga erishish imkonini berishi bilan izohlanadi.

Shu bilan birga, mavjud adabiyotlarda hududlararo diversifikatsiya modellarining innovatsion rivojlanish strategiyalari bilan kompleks integratsiyasi va ularning korxonalar raqobatbardoshligiga ta’sirini tizimli baholash masalalari yetarli darajada umumlashtirilmagan. Mazkur tadqiqot aynan ushbu ilmiy bo‘shliqni to‘ldirishga qaratilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI. Mazkur tadqiqot sanoat tarmoqlarini hududlararo diversifikatsiyalash va innovatsion rivojlanish strategiyalari asosida korxonalar raqobat ustunligini shakllantirish jarayonini baholashga qaratilgan. Tadqiqotning nazariy asosini raqobat ustunligi konsepsiyasi, mintaqaviy iqtisodiyot nazariyasi hamda innovatsion rivojlanish yondashuvlari tashkil etadi.

Tadqiqot jarayonida tizimli va qiyosiy tahlil, tarkibiy o‘zgarishlar tahlili hamda umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Hududlararo diversifikatsiya darajasi sanoat tarkibining o‘zgarishi va tarmoq ulushlari asosida baholandi. Korxonalar raqobatbardoshligi esa ishlab chiqarish samaradorligi, rentabellik, eksport ulushi va innovatsion faollik ko‘rsatkichlari orqali aniqlanib, ularning o‘zaro bog‘liqligi tahlil qilindi.

TAHLIL VA NATIJA. Tadqiqot natijalariga asoslanib ta’kidlash mumkinki, mintaqada sanoat tarmoqlarini hududlararo diversifikatsiyalash orqali

ISSN 3030-3907

korxonalar raqobat ustunligini shakllantirish mexanizmi quyidagi izchil bosqichlardan iborat:

1. Hududiy sanoat rivojlanishi, korxona faoliyati va investitsion muhit bo‘yicha dastlabki statistik hamda moliyaviy ma’lumotlarni shakllantirish;
2. Korxonaning boshlang‘ich moliyaviy holati, ishlab chiqarish quvvati va muayyan hudud hamda mahsulot bozoridagi ulushini kompleks baholash;
3. Mintaqaviy resurs salohiyati, infratuzilma imkoniyatlari va hududlararo kooperatsiya aloqalaridan kelib chiqib, korxona uchun maqbul diversifikatsiya yo‘nalishlari (vertikal, gorizontal yoki klaster asosida)ni aniqlash;
4. Mavjud va jalb etiladigan investitsiya resurslari hajmiga muvofiq hududlararo diversifikatsiyaning muqobil variantlarini shakllantirish;
5. Iqtisodiy samaradorlik, risk darajasi va bozor istiqbolini inobatga olgan holda eng maqbul diversifikatsiya variantlarini tanlash;
6. Dinamik dasturlashga asoslangan iqtisodiy-matematik model yordamida hududlar va tarmoqlar kesimida kapital qo‘yilmalarni optimal taqsimlash;
7. Tanlangan diversifikatsiya varianti doirasida kapital resurslarini alohida sanoat yo‘nalishlari va hududiy loyihalar o‘rtasida ratsional taqsimlash;
8. Hududlararo diversifikatsiyani amalga oshirish natijasida korxonaning ishlab chiqarish hajmi, daromadliligi, bozor ulushi va raqobat ustunligidagi o‘zgarishlarni baholash.

Mazkur ketma-ketlik sanoat korxonalarida hududlararo diversifikatsiyani ilmiy asosda rejalashtirish va kapital resurslardan samarali foydalanish imkonini beradi hamda mintaqaviy raqobatbardoshlikni oshirishning muhim mexanizmi sifatida xizmat qiladi. Diversifikatsiyalashning analitik va algoritmik modellaridan tashqari grafoanalitik model ham mavjud bo‘lib, u mintaqada sanoat tarmoqlarini hududlararo diversifikatsiyalash jarayonida marketing qarorlarini asoslash imkonini beradi. Mazkur model korxonalarning yangi hududiy bozorlarga chiqish istiqbollarini kompleks baholash hamda tavakkalchilik darajasini kamaytirishga xizmat qiladi.

Grafoanalitik model doirasida quyidagi asosiy bloklarni ajratish maqsadga muvofiq:

- hududlararo bozor muhitini marketing tadqiqotlari asosida tahlil qilish, ya’ni yangi hududiy imkoniyatlarni aniqlash va yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan iqtisodiy xatarlarni baholash;
- hududlararo diversifikatsiya sharoitida korxonaning marketing va raqobat salohiyatini aniqlash;
- yangi mahsulot va xizmat takliflarini shakllantirish hamda boshqa hududlarda faoliyatni optimallashtirish orqali risklarni baholash va ishlab chiqarishni kengaytirish;

ISSN 3030-3907

• korxonaning diversifikatsiya salohiyatini hamda tanlangan hududiy bozorlarning investitsion va marketing jozibadorligini kompleks baholash;

• hududlararo diversifikatsiyani amalga oshirish bo‘yicha strategik qaror qabul qilish.

Mazkur grafoanalitik yondashuv hududiy kesimda sanoat korxonalarining marketing strategiyasini diversifikatsiya jarayoni bilan uyg‘unlashtirishga, resurslardan samarali foydalanishga hamda barqaror raqobat ustunligini shakllantirishga xizmat qiladi.

1-jadval

Mintaqada sanoat tarmoqlarini hududlararo diversifikatsiyalash modellarining qiyosiy tavsifi

Model nomi	Yondashuv	Diversifikatsiya bosqichlari	Raqobat omillari	Hududlararo integratsiya
Sanoat tarmoqlarini hududlararo diversifikatsiyalashni optimallashtirishning iqtisodiy-matematik modeli	Modellashtirilgan	+	+	+
Qashqadaryo viloyati sanoat korxonalarini hududlararo diversifikatsiyalash modeli	Obyektiv	+	+	-
Mintaqaviy sanoat klasterlari asosida diversifikatsiya modeli	Tizimli	+	+	+
Sanoat korxonalarining hududiy kengayish modeli	Obyekt	+	-	+

ISSN 3030-3907

Sanoat tarmoqlarini diversifikatsiyalashning strategik konseptual modeli	Protsessual	+	+	-
Hududlararo sanoat kooperatsiyasi asosidagi diversifikatsiya modeli	Grafo-analitik	+	+	+
Diversifikatsiya qarorlarini qabul qilishning grafo-analitik modeli	Grafo-analitik	+	+	+

Izoh: “+” – model mazkur yo‘nalishni qamrab oladi, “-” – modelda ushbu jihat to‘liq aks etmagan

Matematik modellashtirish usullari asosida ishlab chiqilgan innovatsiyalarni qabul qilish modeli hamda korxonaning innovatsion rivojlanishga tayyorlik darajasini baholash tizimi hududlararo diversifikatsiyalash jarayonini ilmiy asosda boshqarish imkonini beradi. Ushbu yondashuv korxonaning innovatsion salohiyati o‘sishini belgilovchi asosiy omillar — innovatsiyalarni qabul qilish darajasi va innovatsion rivojlanishga institutsional, moliyaviy hamda texnologik tayyorlik ko‘rsatkichlarini kompleks hisoblashga tayanadi. Mazkur modelda innovatsiyalarni qabul qilish darajasi ishlab chiqarishning texnologik yangilanishi, investitsion faollik, ilmiy-tadqiqot ishlanmalarini joriy etish hamda boshqaruv tizimining moslashuvchanligi orqali aniqlanadi. Korxonaning innovatsion rivojlanishga tayyorlik darajasi esa resurs salohiyati, kadrlar malakasi, infratuzilma ta’minoti va hududiy kooperatsiya aloqalari bilan baholanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, sanoat tarmoqlarini hududlararo diversifikatsiyalash mintaqaviy iqtisodiyot barqarorligini ta’minlash va korxonalar raqobat ustunligini shakllantirishning muhim omilidir. Vertikal diversifikatsiya qiymat zanjirini chuqurlashtirish va xarajatlarni optimallashtirishga xizmat qilsa, gorizontal diversifikatsiya yangi mahsulot va bozor segmentlarini o‘zlashtirish orqali daromad manbalarini kengaytiradi. Klaster yondashuvi esa hududlararo kooperatsiya va innovatsion integratsiyani kuchaytirib, sinergetik samarani yuzaga keltiradi. Ushbu modellar

ISSN 3030-3907

innovatsion rivojlanish strategiyalari bilan uyg‘unlashganda ishlab chiqarish samaradorligi ortadi, risklar kamayadi va korxonalarning uzoq muddatli raqobatbardoshligi ta’minlanadi.

Shu asosda hududiy sanoat siyosatini diversifikatsiya va innovatsion rivojlanish tamoyillari asosida takomillashtirish maqsadga muvofiqdir. Xususan, yuqori qo‘shimcha qiymatli tarmoqlarga ixtisoslashuvni kuchaytirish, sanoat klasterlarini rivojlantirish, innovatsion infratuzilmani kengaytirish va investitsion muhitni yaxshilash zarur. Shuningdek, logistika va ishlab chiqarish infratuzilmasini modernizatsiya qilish, ilmiy-tadqiqot natijalarini tijoratlashtirish mexanizmlarini qo‘llab-quvvatlash hamda hududlar kesimida sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish korxonalar raqobat ustunligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Mazkur chora-tadbirlar hududlararo sanoat diversifikatsiyasini chuqurlashtirish orqali mintaqa iqtisodiyotining barqaror o‘sishi va xalqaro bozordagi raqobatbardoshligini ta’minlash imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Porter M. E. Competitive Strategy: Techniques for Analyzing Industries and Competitors / M. E. Porter. – New York : Free Press, 1980. – 396 p.
2. Porter M. E. The Competitive Advantage of Nations / M. E. Porter. – New York : Free Press, 1990. – 855 p.
3. Weber A. Theory of the Location of Industries / A. Weber. – Chicago : University of Chicago Press, 1929. – 256 p.
4. Krugman P. Geography and Trade / P. Krugman. – Cambridge (MA) : MIT Press, 1991. – 142 p.
5. Fujita M., Krugman P., Venables A. J. The Spatial Economy: Cities, Regions and International Trade / M. Fujita, P. Krugman, A. J. Venables. – Cambridge (MA) : MIT Press, 1999. – 367 p.
6. Schumpeter J. A. The Theory of Economic Development / J. A. Schumpeter. – Cambridge (MA) : Harvard University Press, 1934. – 255 p.
7. Nelson R. R. (ed.). National Innovation Systems: A Comparative Analysis / R. R. Nelson. – New York : Oxford University Press, 1993. – 541 p.
8. OECD. Innovation-Driven Growth in Regions: The Role of Clusters – Paris : OECD Publishing, 2007. – 312 p.
9. UNIDO. Industrial Development Report 2020: Industrializing in the Digital Age – Vienna : UNIDO, 2020. – 250 p.
10. O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. O‘zbekiston Respublikasining sanoat ko‘rsatkichlari bo‘yicha statistik to‘plam. – Toshkent, 2023. – 210 b.

ISSN 3030-3907